

“ALISHER NAVOIY RUBOIYLARIDA OTA-ONA TIMSOLI”

*SamDU Kattaqo`rg`on filiali
Pedagogika va tillarni o`qitish fakulteti
Filologiya va tillarni o`qitish: o`zbek tili yo`nalishi
2-bosqich talabasi Mamatova Shahlo*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher navoiyning ruboiylari va pand-nasihat ruhi, farzandlarning ota-onaga munosabati, ularning ota-onaga cheksiz hurmat ehtiromda bo`lishi lozimligi haqida ma`lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: ruboiy, tamaddun, shabob, tufuliyat, ravzayi rizvon, tavoze, kasbi saodat, duo.

So`z mulkining sultoni, “millat va din nizomi” Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o`z davrining, Husayn Boyqaro saltanatining yetuk davlat arbobi bo`lishi bilan bir qatorda o`z asarlari bilan ilm-fan va tamaddun rivojiga ulkan hissa qo`shgan mumtoz siymodir. Shu bilan bir qatorda turkiy tilimizning boy va go`zal, serjilo va betakror ekanligini butun olamga isbotlab bergan beqiyos adib hisoblanadi. O`zbek she`riyatini Himolay tog`i deb hisoblasak, Navoiy ijodi Everest cho`qqisidir. Qit`a, g`azal, tuyuq, chistonlari mukammal va sermazmun ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Asarlari ichida ruboiyning o`rni beqiyos.

Husayn Boyqaro “Risola”siga javoban 1485-yilda yozilgan “Nazm ul-javohir” asarida hazrat Navoiy hikmatlarini ruboiylarida talqin qilgan va ularning sonini 270 taga yetkazgan. Ruboiy arabcha “to`rtlik” degan ma`noni bildiradi. Shu to`rt misrada shoir o`zining falsafiy qarashlari, ijtimoiy holati va ichki kechinmalarini mujassam etadi. Ruboiy ikki xil bo`ladi:

1. Ruboiyi xosa, qofiyalanishi: a-a-b-a .

2. Taronayi ruboiy, qofiyalanishi: a-a-a-a.

Alisher Navoiy o`zbek adabiyoti tarixida eng ko`p ruboiy yozgan shoir hisoblanadi. Mutafakkir ruboiyning bu ikki turida samarali ijod qilib turkiy tilda 500ga yaqin ruboiy yozgan. “Xazoyin ul-maoniy” ga yozilgan nasriy " Debocha" tarkibida 30ta, “G`aroyib us-sig`ar”da 133ta, “Devoni foniy”da 100ga yaqin ruboiylari mavjud.

Ushbu ruboiylarda qarindosh-urug`lar holidan tez-tez xabar olib turish, do`stga, ahdga sadoqatli bo`lish, nafsga yengilmaslik haqiqiy insoniy burch ekanligini ta`kidlaydi. Shuningdek, Navoiy sabr tagi sariq oltin ekanligini uqtiradi. Navoiy ruboiylarida ota-ona timsoli ajralib turadi. Buyuk mutafakkir bobomiz otani quyoshga, onani oyga o`xshatadi:

Boshni fido ayla ato qoshig`a,
Jismni qil satqa ano boshig`a ,

Tun-u kununga aylagali nur fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Ota – oila ustuni , dunyoda har ne aziz bo`lsa , unga teng bo`lolmas. Otaga baland ovozda gapirish mumkin emas, uning ko`ziga tik qarash odobdan bo`lmaydi. Dono xalqimiz deydi, “Otang bor uyning tomiga chiqma”.

Shu o`rinda Hazrat Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro o`g`li Badiuzzamonga yozgan maktubi diqqatimni tortadi. Badiuzzamon o`g`li Mo`min Mirzoning makrhiyla natijasida nohaq o`ldirilganidan so`ng otasi Husayn Boyqaro bilan yovlashib qoladi. Shunda bu holatdan dili og`rigan Navoiy Badiuzzamonga quyidagicha maktub bitadi: “Payg`ambar buyuribturki, Tengri taolo rizosi ota rizosiga vobasta (teng)dur va Tengri taolo g`azabi ham ota g`azabiga vobastadur. Bas, kishi ota rizosin hosil qilsa, Tengri taolo rizosini hosil qilmish bo`lg`ay va ota g`zabiga uchrasa, Tengri taolo g`azabiga uchramish bulg`ay. Munday bo`lg`ondin so`ngra kishi nechuk ota rizosidin ayru dam urg`ay yo qadam qo`yg`ay. Va mashoyix so`zidurkim: “Otang-parvardigoringdur”, - bu jihatdin kim, Tengri taolo seni yo`qdin bor qilmoqqa vasila(vositachi) uldir va tufuliyat (bolalik)dan shabob sinni (balog`at yoshigacha) parvarish berguvchi ul... “.

Bu xatni o`qigan Badiuzzamon otasiga qarshi bosh ko`tarishdan voz kechganligi bizga tarixdan ayon.

Farzand ato qilg`un chu odat qilg`ay,
Ul odat ila kasbi saodat qilg`ay,
Har kimki, atog`i ko`p rioyat qilg`ay,
O`glidin anga bu ish siroyat qilg`ay[4].

Xalqimizda “Qaytar dunyo”, “Har kim ekkanini o`rar” degan maqol bor. Yuqoridagi ruboiy shunga ishoradir . Agar har kim farzandidan o`ziga yaxshiliklar kelishini, farzanddan hurmat-e`tibor olishni istasa, vaqtida o`zi ota-onasiga shunday munosabatda bo`lsin.

Qur`oni Karimda ota-onaga yaxshilik qilish qanchalar sharafli ish ekani shunday ta`kidlangan: “Va insonga ota-nasiga yaxshilik qilishni tavsiya qildik”.

Navoiy “Nazm ul-javohir”da shunday deydi:

Ista ato yo`lida jon fido qilmoq,
Qulluq anga ham ulcha imkon qilmoq,
Zuhri abad istasang farovon qilmoq,
Bil oni ato-onag`a ehson qilmoq.

Ma`nosi:

Ota yo`lida joningni fido qilmoqni ista,
Onaga ham imkon boricha qulluq qilgin.
Agar yorug` kunlaring ko`p bo`lmog`in istasang ,
Doimo ota-onaga ehson qilg`il.

Bu ruboiyda shoir onaning oldida o`zini quldek tutishi, onaning xizmatini so`zsiz va minnatsiz ado etishi lozimligi aytib o`tgan. Otaga ham muhabbat jon fido qilish darajasida bo`lish kerakligini ta`kidlagan.

Dunyoda sof, samimiy sevgiga ega bo`lgan zot, bu onadir. Ona o`z jismidan paydo bo`lgan farzandiga faqat va faqat baxtni, yaxshiliklarni ravo ko`radi. Ona ko`zlar quvonchi, yerdagi mehribon farishtadir. Dunyodagi eng muqaddas tushunchalar ham uning nomiga qo`yiladi: ona vatan, ona til....

Onalarning oyog`i ostidadir

Ravzayi jannat-u jinon bog`i.

Ravza bog` visolin istar esang,

Bo`l onaning oyog`in tufrog`i.

Xulosa o`rnida ta`kidlab o`tish joizki, ota-onamiz bizning davlatimiz, savlatimiz va jannatimizdir. Har qancha ehson va yaxshilik qilsak, eng avvali ularga bo`lishi kerak. Kishi ota-onaga har qanday holatda xushmuomalada bo`lishi, mehr-muhabbat to`la ko`zlar bilan qarashi darkor. Agar kishi ikki dunyo saodatiga erishishni xohlasa, kelajakda unib-o`tib, martabali bo`lishni ilmda, kasb-korda rivojlanishni istasa, ota-onasiga yaxshilik qilib, ularning duolarini olishi kerak. Alisher Navoiy millat va din nizomi, g`azal mulkingning sultoni, davlat arbobi, xalqparvar shoir bo`lib yetishishida eng avval unga adabiy muhitni yaratib bergan, qo`llab-quvvatlagan va duo qilgan ota-onasining o`rni beqiyos.

Ota-ona -jannat kaliti!

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati:

1. Alisher Navoiy . Qit`alar, fardlar, ruboiylar, tuyuqlar. T.: – G`afur G`ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti,1968.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati (4 tomlik). – T.: Fan, 1984.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug`ati. – T: Akademiya nashriyoti, 2013.
4. Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir.library.ziynet.uz
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/navoiy-ruboiylar.html>.